O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

XORIJIY TA'LIM TAJRIBALARINING MILLIY TA'LIM TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHUVI SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI

Karimova Kamola Komil qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant.
e-mail: karimovakamola29@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0006-6349-9584

Annotatsiya.
Ta'lim tizimining raqobatbardoshligini ta'minlash, o'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish hamda ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash bugungi kunda muhim pedagogik vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish va ulardan samarali foydalanish yangicha pedagogik yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qilmoqda. Mazkur maqolada xalqaro ta'lim tajribalarining milliy ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati yoritilgan. PISA va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarining nutqiy kompetensiyani rivojlantirish bilan bog'liq jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, xalqaro baholash dasturlari, xorijiy tajriba, PISA, PIRLS, matnni tushunish, integratsiya, o'qish savodxonligi.

НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В УСЛОВИЯХ ИНТЕГРАЦИИ ЗАРУБЕЖНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ОПЫТА В НАЦИОНАЛЬНУЮ СИСТЕМУ ОБРАЗОВАНИЯ

Каримова Камола Комил кизи

Бухарский государственный педагогический институт, базовый докторант.

Аннотация.
Обеспечение конкурентоспособности системы образования, формирование у учащихся современных компетенций и оценивание качества образования на основе международных критериев становятся одними из важнейших педагогических задач современности. Адаптация передового зарубежного опыта к национальной системе образования и его эффективное использование способствуют формированию новых педагогических подходов. В статье рассматривается необходимость развития речевой компетенции учащихся начальных классов в условиях интеграции международного образовательного опыта в национальную систему образования. Проанализированы аспекты международных программ оценивания PISA и PIRLS, связанные с развитием речевой компетенции.

Ключевые слова: речевая компетенция, международные программы оценивания, зарубежный опыт, PISA, PIRLS, понимание текста, интеграция, читательская грамотность.

THE NEED TO DEVELOP PRIMARY SCHOOL STUDENTS' SPEECH COMPETENCE IN THE CONTEXT OF INTEGRATING INTERNATIONAL EDUCATIONAL EXPERIENCE INTO THE NATIONAL EDUCATION SYSTEM

Karimova Kamola Komil qizi

Bukhara State Pedagogical Institute, PhD Student.

Abstract.
Ensuring the competitiveness of the education system, developing modern competencies among students, and assessing the quality of education according to international criteria are becoming increasingly important pedagogical tasks. Adapting advanced international practices to the national education system and using them

effectively contribute to the development of new pedagogical approaches. This article examines the need to develop primary school students' speech competence in the context of integrating international educational experience into the national education system. It also analyzes aspects of international assessment programs such as PISA and PIRLS that are related to the development of speech competence.

Keywords: speech competence, international assessment programs, international experience, PISA, PIRLS, text comprehension, integration, reading literacy.

Kirish. Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va xalqaro ta'lim maydonida yuz berayotgan o'zgarishlar ta'lim mazmunini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Zamonaviy ta'limning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki ularni kundalik hayotda samarali qo'llash, muloqot qilish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Bugungi xalqaro ta'lim tajribasida o'quvchining nutqiy faoliyati alohida lingvistik bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki bilimni anglash, qayta ishlash, muloqot jarayonida qo'llash, fikrni asoslash va yangi mazmun yaratish imkonini beruvchi kompleks kompetensiya sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham xalqaro standartlar asosida kompetensiyaviy ta'lim modelini joriy etishga qaratilgan. Bu jarayonda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki nutqiy kompetensiya boshqa barcha tayanch kompetensiyalarning rivojlanishiga yordam beruvchi yetakchi omillardan biri sanaladi.

An'anaviy boshlang'ich ta'lim amaliyotida nutqni rivojlantirish ko'pincha matnni o'qish, savollarga javob berish, qayta hikoyalash, grammatik mashqlar bajarish va berilgan mavzu asosida gap tuzish kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bunday faoliyatlar muayyan lingvistik ko'nikmalarni shakllantirish uchun yetarli bo'lsa-da, zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq kognitiv-kommunikativ faoliyatni to'liq qamrab olmaydi. O'quvchining matn bilan ishlashi, savolga javob berishi, o'z fikrini asoslashi, muammoni tushuntirishi, o'zaro muloqotga kirisha olishi, mustaqil xulosa chiqarishi ham nutqiy, ham kognitiv faoliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim sohasida keskin o'zgarishlar yuz berayotgan bir paytda O'zbekistonda ta'limni baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda, PISA, PIRLS, TIMSS va TALIS dasturlarida ishtirok etish, xalqaro reytinglarda yuqori o'ringa ega bo'lgan davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro ta'lim tajribasida bilimning o'zi kifoya qilmaydi, bilimdan foydalana olish qobiliyati ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, kompetensiyaviy yondashuvning mohiyatini tashkil etadi.

Nutqiy kompetensiya bevosita o'qish savodxonligi bilan bog'liq ekanligini inobatga olgan holda, nutqiy faoliyatni rivojlantirishda PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlarining o'rni mamlakat miqyosida yetakchi ahamiyatga ega.

PISA — o'quvchilarning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar doirasida savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qay darajada qo'llay olishini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, PISA dasturi o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan munosabati va motivatsiyasi haqida ma'lumotlarni to'plash bilan bir qatorda, ularda muammoli vaziyatlarni hal qila olish ko'nikmalarini ham baholaydi.

Mazkur dasturning asosiy vazifasi mamlakatlarni ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash va qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Xalqaro ekspertlar o'quvchilarda o'qish, matematika va tabiiy fanlardan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikma darajalarining shakllanishi va mustahkamlanishini davlatning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim dastlabki qadam deb hisoblaydilar.

PISA XALQARO BAHOLASH DASTURIDA O'QISH SAVODXONLIGI

O'qish savodxonligi — shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati.

O'qish savodxonligiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar:

1. O'quvchi omillari.
2. Matn omillari.
3. Vazifa omillari.

PISA o'qish savodxonligini mashqlardan va matn omillaridan foydalanish orqali baholaydi. Qo'shimcha so'rovnomada esa qiziqish, tartib va tajriba kabi o'quvchilarning ayrim xususiyatlari tahlil qilinadi. Shunday qilib, PISA o'qish savodxonligini baholashda o'quvchilarning o'qish jarayonlarini (o'quvchilarning matnga bo'lgan aqliy yondashuvlarini) turli matnlar vositasida baholashga qaratilgan.

PISA xalqaro baholash dasturida ba'zi topshiriqlar matndan aniq bir so'z yoki jumlalarni topishni talab qilsa-da, ko'p hollarda zarur ma'lumotni topish va undan xulosalar chiqarish orqali o'qish savodxonligi tekshiriladi:

1-jadval

PISA xalqaro baholash dasturida matn ustida ish olib borish hollari

Tegishli matnni qidirish	Tajribali o'quvchilar faqatgina bitta matnni o'qiganda emas,

va tanlash.	balki bir necha matnlarni oʻqiganda ham ma'lumotlarni tanlay olishadi. Internet muhitidagi ma'lumotlar koʻp hollarda oʻquvchining tahlil qila oladigan miqdoridan koʻra ancha koʻp boʻladi. Bunday bir necha matn bilan ishlash jarayonida oʻquvchi berilgan matnning qaysi biri eng ishonchli, aniq, mavzuga mos keladigan va muhim ekanligi yuzasidan qaror qabul qilishi zarur.
Tushunish.	Koʻplab oʻqish mashgʻulotlari matnda berilgan ma'noni tushunish uchun matnning kengaytirilgan qismlari tahlili va integratsiyasini talab etadi. Matnni tushunish ("anglash" deb ham nomlanadi) "vaziyat modeli" deb nomlangan oʻquvchi tomonidan yaratilgan matn nimaga oid ekanligi haqidagi aqliy ifoda sifatida koʻrilishi mumkin.
Matnning juz'iy ma'nosini ifodalashni oʻrganish.	Bu oʻquvchidan kichik matnlarni va jumlalarni tushunishni talab qiladi. Matnni tushunish zarur ma'lumotni topshiriq va savollarga toʻgʻridan toʻgʻri moslashtirishga olib keladi.
Integratsiya qilib matn yaratishni ifodalash.	Integratsiya qilib matn yaratishni ifodalash har bir gap bilan alohida ishlashdan to toʻliq matn bilan ishlashgacha boʻlgan jarayonni talab etadi. Oʻquvchi turli xil xulosalarni, oddiy bogʻlangandan to murakkabroq ma'no aloqadorligigacha boʻlgan turini yaratishi lozim.

PIRLS — boshlangʻich sinf oʻquvchilarining matnni oʻqib tushunish darajasini baholash boʻyicha xalqaro tadqiqot dasturi. Bir soʻz bilan aytganda, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻqib tushunish malakalari qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, oʻqish va oʻqitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

PIRLS ta'rifiga koʻra, oʻqish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

PIRLS yosh oʻquvchilarning sinfda va sinfdan tashqari oʻqishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan.

Butun dunyo boʻylab oʻqish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan oʻqishlari bilan bevosita bogʻliq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun oʻqishni yoki ta'lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni oʻz ichiga oladi. Koʻpgina yosh oʻquvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya toʻplamlari yoki rasmli kitoblar) yoki oʻquvchilarga atrofidagi dunyo haqida ma'lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma'lumotli matnlardan iborat boʻladi.

Yosh oʻquvchi uchun oʻqish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir oʻqish turini baholashda matnlarni teng boʻlishni asosiy maqsad qilib olgan (1-rasm).



1-rasm. PIRLS xalqaro baholash dasturida matn ustida ishlash hollari

Mazkur xalqaro baholash dasturlari nutqiy kompetensiyaning tarkibiy qismi bo'lgan birgina o'qib tushunish bilangina bog'liq bo'lsa-da, o'quvchilarda birlamchi zarur kompetensiyalarni baholashda muhim dolzarblik kasb etadi.

Xalqaro tajribani o'zlashtirish ularni milliy ta'lim tizimiga mexanik tarzda ko'chirishni nazarda tutmaydi. Xalqaro tajribalarning integratsiyalashuvining asosiy maqsadi xorijiy ilg'or tajribalarni milliy ta'limning mazmuni, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ona tilining lingvistik xususiyatlari hamda mavjud pedagogik shart-sharoitlar bilan o'zaro uyg'unlashtirishdir.

MUHOKAMA

Xalqaro baholash dasturlari doirasida o'qish savodxonligini tahlil qilar ekanmiz, matn ustida ish olib borish jarayonida integrativ, kognitiv faoliyat tarkibiy qismlari bo'lgan tanqidiy tahlil qilish, tushunish kabi ko'nikmalarga asosiy urg'u berilganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida, integrativ-kognitiv topshiriqlarning nafaqat ta'lim jarayonida, balki nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda ham muhim asosga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu kabi topshiriqlar orqali rivojlantirilgan nutqiy kompetensiya xalqaro baholash dasturlarining baholash mezoniga javob bera oladi. Bir so'z bilan aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini integrativ-kognitiv topshiriqlar orqali rivojlantirish masalasiga O'zbekiston ta'lim tizimida PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarining talablariga mos ravishda o'quv jarayonini tashkil etishga bo'lgan ehtiyojni ta'minlashga doir bir omil sifatida qarash mumkin.

XULOSA

Xalqaro ta'lim tajribalarining milliy ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi ta'lim mazmunini zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishni talab etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalasiga ta'lim sifatining muhim mezoni sifatida qaraladi. PISA, PIRLS va boshqa xalqaro baholash dasturlari o'quvchilarning bilimni qo'llay olish, fikrni asosli ravishda ifodalash, samarali muloqot qila olish ko'nikmalariga alohida urg'u qaratadi. Shu jihatdan nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda nafaqat mamlakat miqyosidagi talablarni, balki xalqaro ta'lim tajribalarini ham inobatga olish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo'jayeva N. N. *O'quv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar.* – Toshkent, 2007. – B. 14–23.
2. Artikbayeva Z., Xodiyeva P. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida innovatsion faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati // *Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.* – 2015, aprel. – B. 31–32.
3. Safarova R. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga tatbiq etiladigan yangi yondashuvlar // *Boshlang'ich ta'limni modernizatsiyalash orqali o'quv-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish.* – Toshkent: Reliable Print, 2016. – B. 95.
4. Mavlonova R. A., Rahmonqulova N. *Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi: o'quv qo'llanma.* – Toshkent: Ilm Ziyo, 2009.
5. Masharipova U. A. *Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi* : ped. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. – Toshkent, 2018. – 120 b.
6. Saidova M. J. *Xalqaro baholash tizimi: darslik.* – Toshkent: Classic, 2024. – 578 b.

7. OECD. *PISA 2022 Assessment and Analytical Framework.* – Paris: OECD Publishing, 2023.
8. IEA. *PIRLS 2021 International Results in Reading.* – Amsterdam, 2023.
9. ZiyoNET axborot-ta'lim portali. – Manba